



**SUTKALIK NARYADLARNING XIZMATNI TAHLILIDA – HARBIY INTIZOMNI  
O'RNI**

**Qobilov Qobil Xolmamatovich**  
Jamoat Xavfsizligi universiteti ofitseri

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sutkalik naryadlar xizmatini tashkil etish va tahlil qilish, tahlil natijalari yuzasidan tegishli choralar ko'rish, bo'linmalarda harbiy intizomni mustahkamlash sutkalik naryadlarning xizmat olib borishning ahamiyatli ekanligi hamda bo'linmalarni jangovar shayligini oshirish uchun avvalo bo'linmada harbiy intizomni mustaxkamlash zarurligi yoritilgan.*

**Kalitso'zlar:** *qo'shinlar xizmati, sutkalik naryad, bo'lajak ofitserlar, harbiy intizom, jangovar shaylik, yo'riqnomalar va mashg'ulotlar.*

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bo'lajak ofitserlarni o'qitishda bevosita o'quv-tarbiyaviy jarayoniga qat'iy roiya qilgan holda sutkalik naryadlar va qorovullik xizmatlarini tashkil etish orqali kursantlarni qo'shinlar xizmatini tashkil etish bo'yicha nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalar shakllantirilmoqda. Lekin shunga qaramay bitiruvchilarimiz qo'shinlar xizmatini tashkil etish bo'yicha lozim darajada tayyorgarlik ega emasliklarini, bilim va ko'nikmalar hosil qilmaganligi amaliyotda salbiy e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufidagi harbiy qism va masassalaridan kelgan "Jamoat xavfsizligi universiteti bitiruvchilar to'g'risida fikrnomalar tahlili" va qo'shinlar xizmatini tashkillashtirishdagi xizmat yakunlari tahliliga nazar solsak, o'tgan yilgi bitiruvchila ofitserlik lavozimlarida jangovar va sutkalik naryadlarda birqator muammolarga duch kelganligi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taklif mulohazalar bildirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev ham "...qo'shinnarning jangovar va tezkor tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish, o'quv mashqlari faolligini, ularning samaradorligini oshirish- muhim vazifadir.O'quv mashg'ulotlari harbiy bo'linmalarni imkon qadar to'liq qamrab olgan va o'zaro hamkorlikda harakat qiladigan tuzilmalarni jalgan holda o'tkazilishi lozim. Shu asosda boshqaruv organlari va bo'linmalar imkoniyatlari, askardan tortib komandirgacha bo'lgan har bir harbiy xizmatchining xatti-harakati va jangovar vazifalarni bajarishd aqo'llanayotgan taktikaning maqsadga muvofiqligi va to'g'ri ekanini baholash mumkinligini" ta'kidlab o'tganlar<sup>22</sup>.

Hozirigi glabaloshuv jarayonida barcha sohalarda rivojlanish, tubdan o'zgartirish va takomillashtirish ishlari keng ko'lamda amalga oshrilmoqda, harbiy sohada ham bo'linmalarda qo'shinlar xizmatini (sutkalik naryadlar xizmatini) tashkillashtirish va

---

<sup>22</sup>Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashryoti, 2021. -326 b.



CANADA



CANADA

olib borishda komandirlarni o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ushbu yo‘nalishda ham zarur chora-tadbirlarni ko‘rish davr talabidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ettinchi yo‘nalishida prezidentimiz SH.M.Mirziyoev “Dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab va tahlikali vaziyatda o‘z hayotini Vatan himoyasidek sharaflı ishga bag‘ishlagan,xalqimiz fahriga aylangan jasur harbiylarimizning jangovar shayligi,jismoniy va ma’naviy tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb vazifamiz”<sup>23</sup>degan edi.

Bo‘linmalarda shaxsiy tarkib tomonidan jangavor shaylikni saqlab turish, Vatanga bo‘lgan mehr va muhabbatni shakllantirishda,ularni xizmatlarini baholash va rag‘batlantirish, minadorchilik e’lon qilish va namunali xizmatlarini inobatga olib yashash joylariga xatlar yuborish (mahalasiga, ota-onasiga yoki ularni ish joylariga) orqali harbiy xizmatchilarni komandirlarga bo‘lgan ishonchini oshirish va hurmat qilish, qolaversa o‘z vazifalarini yanada oliv darajada bajarishga rag‘bat paydo bo‘lishi harbiy xizmatchilarning harbiy intizomni mustaxkamlashi hamda yuklatilgan topshiriqlarni sifatli bajarilishiga olib keladi.

Ammo ayrim komandirlar tomonidan sutkalik naryadga tayyorgarligida boshlab, xizmat yakuniga qadar nazorat qilish, ichki xizmat bo‘yicha bo‘linmalarda xizmat yakunini belgilangan vaqtarda o‘tkazmayotganligi harbiy bo‘linmaning jangovar shayligini pasayishiga, bo‘linmaning kundalik faoliyatida kamchilaklarga yo‘lqo‘yish va harbiy xizmat xavfsizligi ta’minalashdagi kamchiliklar va boshqa intizom buzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Aksincha, bo‘ysunuvchilarning har bir harakatidan ogoh bo‘lish, jangovar va sutkalik naryadlar xizmatiga e’tiborni kuchaytirish va uni lozim darajada nazorat qilish orqali harbiy bo‘linmada yuqori natijalarga erishish mumkin. Xizmatdagi yutuqlarini va ko‘rsatgan jonbozliklarni nazardan chetda qoldirmay rag‘batlantirish amaliyotda qo‘llanib borilsa, ular qog‘ozda qolib ketmasa,bu o‘z samarasini beradi albatta va bunday e’tibor harbiy xizmatchilarga ijobjiy ta’sir etadi. Rag‘barlantirish saf oldida, harbiy xizmatchilarning yig‘ilishida buyruq bilan yoki shaxsan e’lon qilish, shuningdek, o‘rnak ko‘rsatganlarni mukofatlash odatda tantanali vaziyatda amalga oshirilsa, bu harbiy xizmatchiga kuch-g‘arat, yanada bundan ham yaxshiroq tashkillashtirishga o‘zida hohish-istak paydo qiladi.

Komandirlar bo‘linmadagi sog‘lom muhitni shakllanishiga, bo‘linmasi tomonidan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatlari bajarishiga va harbiy intizomni mustaxkamlash uchun ularni harbiy ishga qobiliyatlarni aniqlashi hamda bo‘linmalarni boshqarishda yuqori intelektual salohiyatga, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lish zarurligi tarixda ham muhim ahamiyat kasb etgan.Xususan, Amir Temuring “Temur tuzuklar”iga murojaat qilsak, “Sipoxiylarni eng quyi martabadan oliy martabaga cha

---

<sup>23</sup>Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi 6-noyabr, Toshkent. 2021 yil.

tarbiyalab ko‘tarish tuzuki” va “Uluslar, qo‘shinlar va tumanlarning amirlarini tayinlash tuzuki”larida<sup>24</sup>avvalo mardligi, jasurligi, o‘z Vataniga va qo‘mondoniga sodiqligi hamda janglarda uddaburonlik bilan ko‘rsatgan jasoratlarini inobatga olib, bir pog‘ona yuqori lavozimlarga tayinlagan.Bunday tadbirlar o‘tkazish va askarlarga e’tibor – Amir Temur qo‘shinida intizomni saqlash, qo‘shinni saqlab turish va jang olib borishda yoki boshqa vazifalarni bajarishda askarlarni kuch-g‘ayratli va shijoatli bo‘lishga undagan.

Hozirgi kunda esa ayrim holatlarda komandirlar tomonidan bo‘linmalarni kundalik xizmat faoliyatini etarli darajada tashkillashtirmasliklari, boshqarishda inkor qilib bo‘lmas kamchiliklar aniqlanmoqda. Jumladan, ayrim bo‘linma komandirlari xaftalik, oylik tahlillarni o‘tkazidalar,lekin harbiy xizmatchilarni qo‘pol hato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yishi sabablari va oqibatini chuqur o‘rganib zarur chora-tadbirlar ko‘rishga qiynaladi, shaxsiy tarkibga ushbu kamchiliklarni mohiyatini etkaza olmaydi. Bo‘linmada xizmat (naryad)yuqlamalari adolatli taqsimlanmagan, rahbariy xujjatlar talablari bajarilmagan va komandirlar tomonidan talabchanlik bo‘lmagan taqdirda bo‘linmada harbiy intizom holati ham past bo‘lishiga sabablardan biri bo‘ladi.

Sutkalik naryadni sifatli o‘tash,xizmatida safdoshlariga na’muna bo‘lish va o‘z majburiyatini a’lo darajada bajarish kabi hislat larni tarkib toptirish uchun komandirlar sutkalik naryadlarni xizmat olib borish vaqtida nazorat qilsa va xizmatdan keyin kun tartibida belgilangan vaqtarda uni xizmatidagi yutuq va kamchiliklarini tahlilini shaxsiy tarkib bilan muntazam yuritishi hamda zarur choralar ko‘rishi kerak bo‘ladi.

Jangavor tayyorgarlik, harbiy intizom va qo‘shinlar xizmati ahvolini tahlil qilish, oyda kamida bir marta yakun chiqarish va ularni hisobini yuritish bo‘linmalarda muntazam olib borish lozim.

Shu o‘rinda sutkalik naryad ta’rifini keltirib o‘tishni lozimtopdik:

“Sutkalik naryad harbiy qismning (bo‘linmaning)ichki tartibni saqlash, shaxsiy tarkibi, qurol-aslahasi, harbiy texnikasi va o‘q-dorilari, inshoatlari va mulkini qo‘riqlash, bo‘linmalarda ishlarni ahvolini nazorat qilish va huquqbazarliklarda nog‘ohlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qabul qilish,shuningdek, ichki xizmat bo‘yicha boshqa majburiyatlarni bajarish uchun tayinlanadi”<sup>25</sup>.Bunda har bir naryad turi xizmat hususiyatlarida kelib chiqib maxsus majburiyatlar yuklatiladi. Sutkalik naryadlarning majburiyatlaridan tashqari komandirlar yoki ob’ektning qo‘riqlanishi va boshqa xususiyatlarini inobatga olingan holda yo‘riqnomalar ishlab chiqiladi. Bo‘linmalarda ichki tartib va harbiy intizomni mustaxkamlash uchun kun tartibiga rioya etish, unda belgilangan tadbirlar o‘z vaqtida o‘tkazilishi yoki bajarilishi nazorat qilinishi zarur. Bunda bo‘linma komandirlaridan tashqari sutkalik naryadlar kun tartibini o‘z vaqtida bajarilishi uchun ma’sul hisoblanadi, bu esa navbatchining

<sup>24</sup>Соғуний А. Темур тузуклари. Тарихий адабиёт / А.Соғуний ва Х.Кароматов.– Т. Шодлик нашриёти, 2018. – б. 109-112.

<sup>25</sup>Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ички хизмат низоми, 264-моддаси. Т.: Шарқ. 2004. - 1126.

xizmat majburiyatlarida belgilangan<sup>26</sup>. Bo‘linmalarni jangovar shayligini oshirish uchun avvalo bo‘linmada harbiy intizomni mustaxkamlash zarur.

Bo‘linmalarda qo‘shinlar xizmatini tashkil etish uchun esa shaxsiy tarkib tayyorgarlini, mashg‘ulot va yo‘riqnomalarini o‘tkazishxonasi (joylari)ni, o‘quv-moddiy bazani tayyorlash maqsadga muvofiq deb bilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘mondonining buyrug‘lariga asosan o‘quv muassasalarida, harbiy qism va bo‘linmalarda jangavor shayligini oshirish va sutkalik naryadalarni tayyorgarligi samarali tashkillashtirish, shuningdek, ularga amaliy ko‘nikmalarini yanada oshirish maqsadida (xizmat yo‘nalishlari bo‘yicha) qo‘shinlar xizmatini tashkillashtirish yuzasidan quyidagilarni taklif etamiz:

- qorovullarni nazari yo‘qitish sinfini zamonaviy elektron doska va kompyuter vositalari bilan jihozlash;
- qorovul va sutkalik naryadlarni xizmatga tayyorlash shaharchasi yopiq binoda tayyorlanishi, postlarni qabul qilish va topshirish joylarini sun’iy ravishda turli noqulay ob-havo sharoitlarini hisobga olib, sutka mabaynida xududni kuzatish uchun maxsus texnik vositalar orqali jihozlash;
- sutkalik naryadlarni turli xil sharoitlarda harakatlanishini takomillashtirish maqsadida maxsus elektron yong‘in hosil qilish va immitatsion harakatlarni bajarish orqali o‘t o‘chirish uchun maxsus jihozlangan xona yaratish;

qo‘ljanggiusullarinibajarishnitakomillashtirishuchunmaxsussimulyasiontrenajyorlarini aratish.

Xulosa o‘rnida takidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining barcha tarkibiy tuzilmalarida harbiy intizomni mustahkamlashda barcha bo‘g‘indagi komandir (boshliq)lar alohida o‘rin tutadi. Lekin bo‘linmalarda kundalik faoliyatni tashkil etish, tartib-intizomni mustahkamlashda sutkalik naryadlar faoliyatini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, sutkalik naryadlar va navbatchilarining foaliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi, bo‘linmada harbiy intizomni saqlashi, jangovar shayligi va tezkorligining muvaffaqiyatli ta’minlanishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGANADABIYOTLARRO‘YXATI:**

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashryoti, 2021. -326 b.
2. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi 6-noyabr, Toshkent. 2021 yil.

<sup>26</sup>Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлари Ички хизмат низоми, 306-моддаси. Т.: Шарқ. 2004. - 125 б.



CANADA

**INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION**  
**International scientific-online conference**



CANADA

3. Sog‘uniyA. Temur tuzuklari. Tarixiy adabiyot / A.Sog‘uniyvaX.Karomatov.– T. Shodlik nashriyoti, 2018. – b. 109-112.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichkixizmatnizomi, 264-moddasi. T.: SHarq. 2004. - 112 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichkixizmatnizomi, 306-moddasi. T.: SHarq. 2004. - 125b.

6. Internet resurslari:

7.<https://www.kun.uz>:

8.<https://www.ziyonet.uz>.